

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil. 05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DJAMOLOV JUMABOY XISENOVICH

MDH MAMLAKATLARIDA DAVLAT TILI MASALALARI

10.00.11-Til nazariyasi. Amaliy kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Farg‘ona-2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Djamolov Jumaboy Xisenovich

MDH mamlakatlarida davlat tili masalalari..... 3

Djamolov Jumaboy Khisenovich

Issues of the state language in the CIS countries 27

Джамалов Джумабой Хисенович

Вопросы государственного языка в странах СНГ 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 58

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil. 05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DJAMOLOV JUMABOY XISENOVICH

MDH MAMLAKATLARIDA DAVLAT TILI MASALALARI

10.00.11-Til nazariyasi. Amaliy kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Farg‘ona-2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2PhD/fil2504 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat univeristetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat univeristeti veb-sahifaning www.fdu.uz hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shokirov Tug'ral Sirojovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Abdujamol Hasanzoda Ashraf
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 19 oktabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105 uy. Telefon: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

307 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetini Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2023-yil 6 oktabr raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 6 oktabr da tarqatildi.
(2023-yil 6 oktabr dagi 29 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.M. Iskandarova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol. f.d., professor

M.T. Zokirov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol. f.n., professor

A. Mamajonov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol. f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til va jamiyat muammolari, xalqaro va milliy tillar, ayrim mintaqalardagi turli tillarning o‘zaro ta’siri, tillar holatini batafsil o‘rganish, xususan, yo‘q bo‘lib ketayotgan tillarni himoya qilish hamda turli mamlakatlarda til siyosatini boshqarishga e’tibor kuchaydi. Bu kabi masalalarning hal qilinishi sotsiolingvistik tadqiqotlarni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ko‘p millatli mamlakatlardagi ijtimoiy siyosat va turli millatlarning do‘stona munosabatlarini ta’minlashda davlat tilining, til siyosatining, MDH mamlakatlaridagi tillarning mavqeyini belgilash katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida inson va jamiyatning tilga munosabatini ochib beruvchi sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, paralingvistika va shu kabi sohalar shiddat bilan rivojlanmoqda. Hozirgi globallashtirish sharoitida tilning ijtimoiy vazifalarini mamlakatlarning xalqaro va me’yoriy-huquqiy hujjatlari asosida tadqiq etish, mustaqil milliy tillar taraqqiyotida davlat tili hamda milliy tillarning o‘rni va ijtimoiy vazifalarini aniqlash, turli xalqlarning milliy o‘zligini anglashiga qaratilgan qadriyatlarni qayta tiklash alohida vazifalardan biri bo‘lib, bu boradagi tadqiqotlar muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillaridan hozirga qadar MDH mamlakatlarida “Davlat tili haqida”gi Qonunni hayotga tatbiq etish va milliy davlatchilikni tashkil etishdagi davlat tilining o‘rni va maqomiga ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ushbu respublikalarida davlat tilini rivojlantirish borasida qator muammo va to‘siqlar ham mavjudki, ular hali-hanuz o‘z yechimini kutmoqda. Zero, “Davlat tili masalasi milliy g‘oyamizning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanishi kerak. O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, til uslublari, tarixiy taraqqiyoti va uning mustaqilligi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish zarur”¹. Davlat tomonidan til siyosatini amalga oshirishda davlat tilini rivojlantirish va uning istiqboliga oid masalalarni hal etish soha olimlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidada”gi Qonunini kuchga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi 3563-XI-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahririni amalga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi 167-1-sonli hamda 2020-yil 10-apreldagi “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi 618-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5850-sonli hamda 2020-yil 21-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni,

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://uza.uz/>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentyabrdagi “O‘zbekiston SSR Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni amalga oshirish davlat dasturiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 311-sonli, 2018-yil 18-maydagi “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-sonli, 2019-yil 12-dekabrdagi “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 984-sonli, 2020-yil 3-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 117-sonli, 2020-yil 11-martdagi “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 139-sonli qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga tatbiq etishda ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab dunyoning bir qancha nufuzli universitetlarida, jumladan, Kembrij, Oksford, Edinburg, Garvard, Nyu-York, Chikago, Toronto, Moskva, Sankt-Peterburg kabi davlat va shaharlarning oliy ta‘lim muassasalarida sotsiolingvistika yo‘nalishida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Bular orasida tadqiqotchilar V.I.Belikov, L.P.Krisin, Bell Rojer, V.D.Bondaletov, N.B.Vaxtin, E.V.Golovko, T.B.Kryuchkova, B.P.Narumov, X.Z.Bagirokov, Z.U.Blyagoz, K.Diyachkov va boshqalarning izlanishlari milliy, davlat va rasmiy tillar tadqiqi, til va uning ijtimoiy vazifalariga oid o‘zgarishlar, me‘yoriy til muammolari, til va siyosat o‘rtasidagi munosabatlar, Ispaniyadagi tilning ahvoli, Adigeya Respublikasidagi qayta qurishdan keyingi ikkitillilik holati, rus va fransuz tillarining o‘ziga xosligi, ikkitillilik muammolarining nazariy va amaliy jihatlariga e‘tibor qaratilgan².

Turkologiya sohasida til va jamiyat munosabatlari, ikkitillilik, tillararo aloqalar hamda til siyosati masalalari A.M.Abasilov, S.A.Asanbayeva, B.Xasanuli (Qozog‘iston), Z.Derbisheva (Qirg‘iziston), J.Tuxvatulina (Tatariston) kabi tadqiqotchilar tomonidan maxsus o‘rganilgan³.

² Беликов В.И., Крысин Л.П. Социоллингвистика. Учебник для вузов. – М.: Рос. гос. гуманит. ун-т, 2001. – 315 с.; Белл Роджер Т. Социоллингвистика. Цели, методы и проблемы. – М.: Международные отношения, 1980. – 320 с.; Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. – М.: Просвещение, 1987. – 160 с.; Вахтин Н.Б., Головкин Е.В. Социоллингвистика и социология языка. – Санкт-Петербург: Гуманитарная академия, 2004. – 336 с.; Крысин Л.П. Язык в современном обществе – М.: Просвещение, 1977. – 192 с.; Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социоллингвистика. Монография. – М.: Наука. 1991. – 157 с.

³Абасилов М.А., Асанбаева С.А. Социоллингвистические исследования в Казахстане: новые возможности и проблемы // Международный журнал экспериментального образования, 2015. – №3. – 192-196 с.; Хасанулы Б. Тілдік катынас негіздері. – Алматы, 2006. – С. 356; Дербишева З. Языковая политика и языковая ситуация в Кыргызстане // Russian Language journal, 2009. – 49-58 с.; Вейсялли Ф. Языковая ситуация в современном Азербайджане: <https://doi.org/10/18485>.

O‘zbekiston tilshunosligida til va jamiyatning nazariy muammolari XX asr boshlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor asarlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, o‘tgan asrning 80- va 90-yillarida bu masala jiddiy tus oldi. Ushbu davrda o‘zbek ziyolilaridan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O‘tkir Hoshimov, Akmal Akromov, Kamol Matyoqubov, Mirza Kenjaboyev, Oydin Hojiyeva, Tohir Malik, Temur Po‘latov, Xurshid Davron va boshqalar o‘z maqolalarida davlat tili va milliy tillarning mamlakatdagi o‘rni hamda mavqeyiga e‘tibor qaratdilar. Mustaqillik yillarida tilshunos olimlar – H.Ne‘matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Mamajonov, Sh.Iskandarova, S.Mo‘minov, H.Dadaboyev, N.Saidrahimova, M.Zokirov, Sh.Usmonova, N.Bekmuhammedova, B.Qo‘shakova va boshqalar til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilib, maxsus qo‘llanmalar yaratdilar⁴.

Qoraqalpoq tilining tadqiqiga bag‘ishlangan, xususan, rus va o‘zbek tillarining qoraqalpoq tiliga ta‘siri, bilingvizm, ko‘ptillilik masalalari A.N.Baskakov, N.O‘runboyev, D.Nasirov, E.Berdimurodov, K.Qo‘shchanov, R.Yesemuratova, A.Umarov, A.Jaqsiboyev, G.A.Qurbaniyozov kabi tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etildi⁵.

Tojikiston ijtimoiy tilshunosligi sohasida ham bir qator ishlar olib borildi. Tojik ziyolilari, tilshunos olimlari S.Ayniy, S.Alizoda, T.Zehniy, M.Shakuriy, A.Maniyozov, R.G‘afforov, Y.Akbarzoda, T.Vahhobov, T.Shokirov, H.Sulton, Sh.Rustamov, L.Sheraliy, G.Safiyeva, M.Mirrahimov, A.Sayfulloyev, T.Abdujabbor, D.Saymiddinov, M.Qosimova, A.Istad, R.Hodizoda, S.Nazarzoda, H.Majidov, A.Hasanovlarning risola va maqolalarida, matbuot va turli ilmiy anjumanlarda til va jamiyatning dolzarb masalalari, xususan, mahalliy aholining rus tiliga munosabati, ikkitillilik, Tojikiston hududida tojik tilining ijtimoiy vazifalari, tilga doir davlat siyosati, tojik adabiy tili me‘yorlari, ommaviy axborot vositalari materiallarining sifati, tojik yozuvi va imlosi, Tojikiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonuni va uning amalga tatbiq etilishi, Tojikiston hukumati va Prezidentining davlat tilini rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibori, kam sonli aholi tillarining ravnaqi, xususan, Badaxshon tillarining rivojlanishi masalalari o‘rtaga tashlandi⁶.

⁴Маҳмудхўжа Бехбудий. Икки эмас, тўрт тил керак // “Ойина” журнали, 1913. – №1; Абдулла Қаҳҳор. Ғоят бой ва чиройли // “Адабиёт ва санъат” gazetasi, 1989, 24 март. – №13; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000. – 235 б.; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ фаолиятининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 25 б.; Саидрахимова Н. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. –Тошкент, 2004. – 25 б.; Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2007. – 148 б.; Жўраев Ш. Билингвизм шароитида тожик ва ўзбек тилларининг лексик сатҳидаги ўзаро алоқалари: Филол. фан. бўйича ф.д. (PhD) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2018. – 21 б.

⁵ Баскаков А.Н. Социолингвистический анализ языковой ситуации в регионе Средней Азии и Казахстана. – Нукус: Билим, 1992. – 15 с.; Урунбаев Ж. Народное образование в Каракалпакстане за 10 лет. – Нукус-Каракалпакстан, 1973. – 170 с.; Насыров Д.С. Становление каракалпакского общенародного разговорного языка и его диалектная система. – Нукус-Казан, 1976. – 399 с.

⁶ Маҷмӯи мақолаҳои конферансиаи Маданияти сухан. – Ирфон, 1989. – 359 с.; Ю.Акбарзода. Соҳиби ин забон кист? – Д., 2009. – 280 с.; Ваҳҳобов Т. Масоили сохтмони забони тоҷикии адаби дар солҳои 20-90-уми садаи ХХ. Китоби IV, Мусохиба дар атрофи мақоми давлатии забони тоҷикӣ. – Хучанд: Меъроҷ, 2004. – 590 с.; Шакурӣ М “Ҳар сухан ҷоеву ҳар нукта мақоми дорад”, нашри саввум. – Душанбе: Ирфон, 2005;

Mazkur dissertatsiya ishida MDH mamlakatlari, xususan, ikki qo'shni davlat – O'zbekiston va Tojikiston hukumatlari tomonidan mustaqillik yillarida olib borilgan til siyosati, chunonchi, davlat tilini rivojlantirish masalalari hamda milliy tillarga bo'lgan munosabat nazariy jihatdan tahlil etildi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarida milliy tillarning davlat tili maqomiga ega bo'lish bosqichlari, mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, ushbu mamlakatlarda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning amalga joriy etilishi, davlat tili va kam sonli aholi tillari rivojlanishiga davlat rahbari va hukumatning e'tiborini yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tilning ijtimoiy-funksional rivojlanishiga ijtimoiy omillar ta'sirini ko'rsatish;

O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarida davlat tilining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, yozuv va imlo muammolarini asoslash;

O'zbekistonda o'zbek tili va Tojikistonda tojik tilining davlat tili maqomiga ega bo'lish bosqichlarini aniqlash;

O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarida "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning amalda joriy etilishi, davlat tili va kam sonli aholi tillari rivojlanishiga davlat rahbari va hukumatning e'tiborini ochib berish;

davlat tiliga jamoatchilik e'tibori va aholining davlat tilidan foydalanish darajasini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston va Tojikiston Respublikalaridagi til siyosati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston va Tojikiston hukumatlarining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni, davlat tili va milliy tillarning qo'llanilishi hamda tillarning ijtimoiy vazifalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, sinxron va diaxron hamda statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida o'zbek tili va Tojikiston Respublikasida tojik tilining demokratik yondashuvlar, adolat, huquqiy, siyosiy, demografik va milliy birlik asosida davlat tili maqomiga ega bo'lganligi, O'zbekiston va Tojikiston davlatlari hukumat rahbarlarining davlat tili va milliy tillarga munosabati me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning ma'ruza va siyosiy nutqlari asosida dalillangan;

O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunlarining qabul qilinish jarayoni hamda ularning keyingi tahrirlari qiyosiy tavsiflangan, lotin yozuviga asoslangan o'zbek tili va kirill yozuviga asoslangan

tojik tili imlo qoidalarining o'ziga xosliklari, ularni amaliyotda qo'llash bilan bo'g'liq muammolar aniqlangan;

o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi «loyihaga qadar» va «loyiha yuzasidan bahslar» kabi bosqichlar hamda tojik tiliga davlat tili maqomi berilishi «So'z madaniyati» konferensiyasiga qadar» va «konferensiyadan keyingi bahslar» kabi davrlar asosida o'rganilgan;

til masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va uning sotsiolinivistik ahamiyati, davlat tilining maqomi ilk bor davlat rahbarlari faoliyati doirasida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

MDH mamlakatlarida davlat tili masalalari (O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari misolida) tadqiqi yuzasidan bildirilgan xulosalar til tarixi, hozirgi o'zbek tili, hozirgi tojik adabiy tili, sotsiolingvistika kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanma, o'quv-uslubiy majmualarning takomillashuvi uchun xizmat qilishi asoslab berilgan;

o'quv lug'atlari, masalan, o'zbek tilining forscha-tojikcha o'zlashmalar lug'ati, tojik tilining o'zbekcha o'zlashmalar lug'ati, tojik tilining imlo qoidalari va tinish belgilari, bolalar ensiklopediyasi ("Donishnomai bachagona") dagi ahamiyati ko'rsatilgan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi, tojik milliy-madaniy markazi va uning viloyatlardagi bo'linmalari faoliyatidagi ahamiyati asoslab berilgan;

Tojikiston Respublikasi hukumati huzuridagi til va atamashunoslik qo'mitasi hamda uning viloyatlardagi bo'linmalarining ish yurituvdagi ahamiyati ko'rsatilgan;

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tojik tilida olib boriladigan oliy ta'lim muassasalari yo'nalishlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Davlat ta'lim standartining namunaviy o'quv rejalari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun xizmat qilishi isbotlangan;

O'zbekiston Respublikasida tojik tilida faoliyat ko'rsatuvchi ommaviy axborot vositalari ("Ovozi tojik", "Xovar", "Sadoi Samarqand", "Sadoi So'x" gazetalari, "Durdonai Sharq", "FarDU ilmiy xabarlar" jurnali) faoliyatining takomillasuviga xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, qiyoslash kabi usullar bilan asoslanganligi, tahlillarda o'zbek va tojik tillari tabiatidan kelib chiqilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston va Tojikiston hukumatlarining til siyosati, ushbu respublikalardagi "Davlat tili haqida"gi

Qonunining yangi tahririni ishlab chiqishda, qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amalga tatbiq etilishida, ularning takomillashuvida, davlat tilini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda, ushbu mamlakatlarda til siyosatini amalga oshirishda, "Davlat tili haqida"gi Qonunning amalga tatbiq etilishi bilan bog'liq muammolarni hal etishda, O'zbekiston va Tojikiston davlatlarida istiqomat qiluvchi turli millat vakillarining til jamoalarida tilga bo'lgan munosabati hamda ular orasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish sotsiologvistik nuqtai nazaridan yoritilganligida yamoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotda keltirilgan fikr va mulohazalar, olingan xulosa va natijalardan til tarixi, hozirgi o'zbek tili, hozirgi tojik tili, sotsiolingvistika kabi fanlardan darslik va qo'llanmalar, o'quv va ensiklopedik lug'atlar, jumladan, o'zbek tilining fors-tojikcha o'zlashmalar lug'ati, tojik tilining o'zbekcha o'zlashmalar lug'ati, tojik adabiy tilida imlo qoidalari va tinish belgilari o'quv-uslubiy qo'llanmasini yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi, Tojikiston Respublikasi hukumati huzuridagi til va atamashunoslik qo'mitasi hamda uning viloyatlardagi bo'linmalari, respublika tojik milliy-madaniy markazi va uning viloyatlardagi bo'linmalari faoliyati samaradorligini oshirish hamda O'zbekistonda ta'lim tojik tilida olib boriladigan oliy ta'lim muassasalari yo'nalishlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, O'zbekiston Respublikasida tojik tilida faoliyat ko'rsatuvchi "Ovozi tojik", "Xovar", "Sadoi Samarqand", "Sadoi So'x" gazetalari, "Durdonai Sharq", "FarDU ilmiy xabarlar" jurnali kabi ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

O'zbekiston Respublikasida o'zbek tili va Tojikiston Respublikasida tojik tilining demokratik yondashuvlar, adolat, huquqiy, siyosiy, demografik va milliy birlik asosida davlat tili maqomiga ega bo'lganligi, O'zbekiston va Tojikiston davlatlari hukumat rahbarlarining davlat tili va milliy tillarga munosabati aks etgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ma'ruza va siyosiy nutqlari haqidagi fikr-mulohaza hamda xulosalardan "O'zbek tilining fors-tojikcha o'zlashmalar lug'ati. Lug'ati vomvojahoi forsiy-tojiki dar zaboni o'zbeki" o'quv lug'atini tayyorlash va chop etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'iga asosan 500/t-005 ruxsatnomasi). Natijada respublika oliy ta'lim muassasalarining filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili, filologiya va tillarni o'qitish, tojik tili yo'nalishlari talabalari o'quv adabiyoti bilan ta'minlangan;

O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinish jarayoni va ularning keyingi tahrirlari, o'zbek tilining lotin imlosi va tojik tili kirill imlosining o'ziga xosliklari, ularni amaliyotda

qo'llash bilan bo'g'liq muammolar, o'zbek va tojik tilining o'zaro ta'siriga oid fikr-mulohazalar, xulosa va tavsiyalardan "Imlo va alomathoi kitobat dar zaboni adabii tojik" nomli uslubiy qo'llanmasini ishlab chiqish va nashr etishda foydalanilgan. Natijada oliy ta'lim muassasalarining filologiya va tillarni o'qitish: tojik tili yo'nalishi talabalari hamda Farg'ona viloyatidagi ta'lim tojik tilida olib boriladigan umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun uslubiy-metodik yordam ko'rsatilgan;

o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi «Loyihaga qadar» va «Loyiha yuzasidan bahslar» kabi bosqichlar hamda tojik tiliga davlat tili maqomi berilishi «So'z madaniyati» konferensiyasiga qadar» va «Konferensiyadan keyingi bahslar» kabi davrlar asosida o'rganilishi haqidagi tavsiya va xulosalar asosida yaratilgan «Mas'alahoi zaboni davlati va qaziyahoi rushdi on dar Jumhurii Tojikiston» nomli monografiyadan akademik B.G'ofurov nomli Xo'jand davlat universitetida o'quv adabiyoti sifatida foydalanilmoqda (Xo'jand davlat universitetining 2023-yil 4-maydagi 01/2028-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur universitet talabalarining davlat tili fani bo'yicha bilim va ko'nikmalari rivojlantirilgan;

til masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va uning sotsiologik ahamiyati haqidagi xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi tojik milliy-madaniy Markazi Farg'ona viloyat bo'linmasi tadbirlari, joylardagi targ'ibot ishlarida keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi tojik milliy-madaniy Markazi Farg'ona viloyat bo'linmasining 2023-yil 12-iyundagi 8-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Farg'ona viloyatidagi ta'lim tojik tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining davlat tili va milliy tillarga e'tibor va ehtiromining oshishiga erishilgan hamda tojik tilining yangi imlo qoidalarini amal qilinishi yo'lga qo'yilgan.

Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 32 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 3 ta respublika hamda 20 ta xalqaro konferensiyada ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 32 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta o'quv lug'ati, 1 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Til masalalari va unga oid davlat strategiyasi”** deb nomlangan birinchi bobida tillar, milliy til, adabiy til va davlat tili taraqqiyotiga oid sotsiolingvistik nazariyalar, tillarni rivojlantirishga doir davlat siyosati, til masalasi va tilga oid davlat strategiyasi bilan bog‘liq nazariy ma‘lumotlar, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tavsifi o‘rin olgan.

Birinchi bobning dastlabki bo‘limi **“Til rivojlanishining sotsiolingvistik nazariyalari”** deb nomlanadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlarda tilning ijtimoiy mohiyati va vazifalari, jamiyatning tilga ta‘siri va tilning jamiyatga ta‘siri, tilning jamiyatdagi o‘rni va vazifalari, tillarning o‘zaro munosabati kabi masalalar jahon tilshunoslarining diqqat markazida turadi. Bu yo‘nalishning asoschilari Ferdinand de Sossyur va Boduen de Kurtene hisoblanadi. Sohaning keyingi taraqqiyotida taniqli tilshunoslardan A.M.Selishchev, R.O.Shor, P.P.Yakubinskiy, M.N.Peterson, V.V.Vinogradovlarning sotsiolingvistik nazariyalari alohida ahamiyat kasb etdi.

Sobiq Ittifoq davrida til siyosatini amalga oshirish jarayonida barcha xalqlarni birlashtirish, ko‘p millatli aholining bir tilda so‘zlashuvini ta‘minlash siyosati kuchayganligi bois XX asr tilshunosligida ijtimoiy lingvistika faollashib, tadqiqotlar asosan rus tili va milliy tillar o‘rtasidagi munosabatlarga, respublikalarda rus tilini o‘rganish darajasi, uning hukmronligi va boshqa tillarga ta‘siri, ikkitillik vaziyatini o‘rganish masalalariga qaratildi. Bu harakatlar, o‘z navbatida, o‘zbek va tojik tilshunosligiga ham salmoqli ta‘sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalarida milliy tillarga davlat tili maqomining berilishi davlat mustaqilligi sari qo‘yilgan ilk qadamlardan biri bo‘ldi. O‘zbekiston va Tojikistonda o‘zbek hamda tojik tillarining hududlarda keng qo‘llanilishi natijasida aholining milliy tilga bo‘lgan munosabati va til siyosati ham o‘zgara boshladi. Bu sa‘y-harakatlar “Davlat tili haqida”gi Qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yildi. Ushbu davrda har ikki mamlakatda davlat tili mavqeyining ortishi bilan birga o‘zbek va tojik tilshunosligining yangicha yondashuvlar asosida rivojlanishi ham kuzatildi.

O‘zbekiston tilshunosligida N.Mahmudovning “Til va jamiyat”, “Til”, “So‘zimiz va o‘zimiz”, “Ma‘rifat manzillarida”, A.Rustamovning “So‘z xususida so‘z”, A.Abdulazizovning “Tillar olamiga sayohat”, Q.Xonazarovning “Til va dil”, S.Mo‘minovning “O‘zbek so‘zlashuv nutqining ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari”, “Salomlashish san‘ati”, N.Mahmudov, N.Mahkamov, A.Madvaliyevlarning “O‘zbek tilida ish yuritish”, I.Qo‘chqortoyevning “Nutq madaniyati va stilistikasi asoslari” kabi risola va qo‘llanmalari, turli lug‘atlar, jumladan, tarjima va

atamashunoslikka oid lugʻatlar nashr etilib, bular oʻzbek tilining mustaqil til sifatida rivojlanishiga xizmat qildi.

Tojikiston tilshunosligida til masalasiga eʼtibor 1980-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan boʻlib, mustaqillik yillarida Tojikiston hukumatining til siyosati “Davlat tili toʻgʻrisida”gi Qonun asosida rivojlantirildi. Milliy til ravnaqi masalalariga qaratilgan tadqiqotlar doirasida Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmonning “Tojiklar tarix oynasida. Oriyoilardan Somoniylargacha”, “Til va milliy oʻzlik”, “Abadiy chehralar”, “Millat tili – millatning borligi”, T.Vahhobovning “XX asrning 20- va 90-yillarida adabiy tojik tili qurilishi masalalari” (besh jildlik) asarlari istiqolning dastlabki yillarida tojik tili ijtimoiy mavqeyini mustahkamlash borasida alohida ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Sh.Rustamov, R.Gʻafforov, R.Hodizoda, M.Shakuriy, S.Nazarzoda, D.Saymiddinov, T.Shokirov, B.Kamoliddinov, Y.Akbarzoda, X.Majidov, S.Hojiyev, A.Abduqodirov, A.Hasanov, D.Xoʻjayev, N.Ofaridayev va boshqa olimlar oʻz asarlarida tojik tilining sotsiologik masalalariga ham jiddiy eʼtibor qaratdilar.

Ushbu bobning ikkinchi boʻlimi “**Milliy til, adabiy til va davlat tili**” deb nomlanadi. Maʼlumki, til xalqning barcha maʼnaviy boyliklarini oʻzida mujassamlashtiradi. Tilshunos olim A.Nurmonovning tilni millat yuragi⁷ sifatida eʼtirof etishi bejiz emas. Bu oʻrinda xalq tilining milliy, adabiy, davlat, rasmiy shakllariga izoh berish maqsadga muvofiqdir. **Milliy til** – muayyan xalqning yozma va ogʻzaki adabiy shakliga ega boʻlgan muloqot tili sanaladi. **Adabiy til** – milliy tilning maʼlum meʼyorlarga solingan, xalqning madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan rivojlangan va takomillashgan shaklidir⁸. **Davlat tili** – bu bir mamlakat aholisi tomonidan eng yuqori davlat maqomiga ega boʻlgan til boʻlib, xuddi shu til orqali rasmiy va meʼyoriy hujjatlar tartibga solinadi. **Rasmiy til** – bu mamlakat qonunlarida oʻz aksini topgan va ushbu mamlakatni baʼzi hududlarida qonuniy ravishda qabul qilingan til hisoblanadi.

Tadqiqotimiz davomida MDH mamlakatlarida milliy tillar asosan mustaqillikdan keyin rivojlanganligi, ushbu tillarda hujjat ishlarini yurtishga alohida eʼtibor qaratilayotganligi, “Davlat tili toʻgʻrisida”gi Qonun ustuvorligi tobora taʼminlanib, til siyosati davlat siyosatning ajralmas bir qismiga aylanib borayotganligiga ishonch hosil qildik.

Birinchi bobning uchinchi fasli “**Til siyosati va uning amalga ochirilishi**” deb nomlanadi. Oʻzbekiston koʻpmillatli davlat boʻlganligi sababli bu mamlakatda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi (1-, 2-, 3-jadval). Davlatning bu boradagi siyosiy yondashuvi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida “Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tilidir. Oʻzbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tili, urf-odatlarini, anʼanalarining hurmat qilinishi va rivojlanishini taʼminlash uchun sharoit yaratadi”⁹, deb belgilab qoʻyilgan.

⁷ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.200.

⁸ Ҳоҗиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1985. – 10 б.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 5 б.

Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasidagi ana shunday fikrlarga e'tibor qarataylik: "Tojikiston Respublikasining davlat tili tojik tilidir. Rus tili xalqlar o'rtasidagi muloqot tili sifatida ishlatiladi. Respublika hududida yashovchi barcha xalqlar o'z ona tilidan erkin foydalanish huquqiga ega"¹⁰ (4-, 5-jadval).

O'zbekistonda til siyosati va uning rivojlanishi, davlat tilining huquqiy maqomi qator qonun va qonunosti hujjatlarida belgilab qo'yilganligi va buning amaliy tatbiqi asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989-yil 21-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hukumatining "Davlat tili haqida"gi Qonunini kuchga kiritish tartibi to'g'risida"gi 3563-XI-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda "Davlat tili haqida"gi Qonunining yangi tahririni amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi 167-1-sonli hamda 2020-yil 10-aprelda "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi 618-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5850-sonli hamda 2020-yil 21-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi FP-6084-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrda "O'zbekiston SSR Davlat tili haqidagi"gi Qonunini amalga oshirish davlat dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 311-sonli, 2018-yil 18-mayda "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 376-sonli, 2019-yil 12-dekabrda "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-sonli, 2020-yil 3-martda "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 117-sonli, 2020-yil 11-martda "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-sonli qarorlari va hokazo.

Tojikistonda til siyosati bilan bog'liq rivojlanishning huquqiy maqomi bir qator qonun va qonunosti hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan. Bular quyidagilar: "Davlat tili to'g'risida"gi Tojikiston Respublikasining Qonuni (22.08.1989, yangi tahriri, 5.10.2009, 699-son), "Tojikiston Respublikasi hukumatining davlat tilini rivojlantirish dasturi" (21.09. 1989, 442-son qarori), Tojikiston Respublikasi Oliy Kengashining "Til kunini nishonlash to'g'risida"gi Qarori (16.07.1994), Tojikiston Prezidentining "2004-2014-yillarda Tojikiston Respublikasida rus va ingliz tillarini o'qitish va o'rganishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni (04.04.2003), Tojikiston Respublikasi hukumatining "Tojik tilining yangi imlosi to'g'risida"gi Qarori (09.03.1998, 335-son; 12.4.2011 va 30.06.2021, 268-son), "2012-2016-yillarda davlat tilini rivojlantirish dasturi" (30.06.2012, 335-son), "2020-2030-yillarda davlat tilini rivojlantirish dasturi" (07.28.2020, 647-son) va boshqalar. Shuningdek, Tojikiston hukumatining til

¹⁰ Конституция Чумхурии Тоҷикистон. Ресурси электронӣ. – 17 с.

siyosati Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 26-iyuldagi Farmoniga muvofiq “2008-yil – tojik tili yili” deb e’lon qilinganligida ham namoyon bo’ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar va kuzatishlarimiz asosida O‘zbekiston va Tojikistonning til siyosati, milliy tillarning rivojlanishini uch bosqichga bo‘lishimiz mumkin. O‘zbekistonning til siyosati va uning rivojlanish davrlari:

1. Mustaqillikdan oldin va mustaqillikning dastlabki yillari (1985-1995-yy.).

2. O‘zbek tili bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida (1995-2015-yy.).

3. O‘zbek tili Uchinchi Renessans davrida yoki Yangi O‘zbekiston sharoitida (2017-yildan hozirgi kungacha).

Tojikistonning til siyosati va uning rivojlanish davrlari quyidagicha:

1. Tojik tili mustaqillik arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarida (1985-1992-yy.).

2. Tojik tili fuqarolik urushi paytida va undan keyingi yillarda (1992-2009-yy.)

3. Tojik tilining yangi rivojlanish davri (2009-yildan hozirgi kungacha).

Umuman olganda, til siyosatida davlat tilining maqomi va mavqeyi quyidagi uchta omilga bevosita aloqador sanaladi:

1) davlat tili davlat himoyasida qaror topishi, uni rivojlantirish uchun “Davlat tili to‘g‘risida”gi maxsus qonunning qabul qilinishi;

2) tillarni rivojlantirish dasturi va strategiyasi hamda boshqa me‘yoriy hujjatlarning, tegishli chora-tadbirlarning keng ko‘lamda ishlab chiqilganligi;

3) mamlakatda ish yuritish tizimining, me‘yoriy hujjatlarni yuritishning to‘laonli davlat tili talablariga asoslanishi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida til va uning rivojlanishi masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘zbek tilini davlat tili maqomiga erishish jarayoni, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat tilini rivojlantirishi borasidagi sa’y-harakatlari, o‘zbek tilining yoziuvi va imlosi masalalari muhokama qilingan.

Ushbu bobning birinchi bo‘limi **“O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilish asoslari”** deb nomlangan. O‘tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida mamlakatga demokratik g‘oyalar, ochiqlik va qayta qurish harakatlari kirib kelishi tufayli odamlar o‘z ehtiyojlarini erkin ifoda etishlari, o‘z haq-huquqlarini talab qilishlari va mustaqillik g‘oyalari ifodasi sifatida o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish harakatlari boshlandi. Chunki sho‘rolar davrida rus tilini qo‘llash shu darajada rivojlandiki, hatto oddiy hujjatlar – ariza va ma’lumotnomalar ham rus tilida yuritilgan. “Istibdod davrida milliy ruh, milliy ong va o‘zlikni anglashni muvozanatdan chiqarish uchun bor kuchi bilan siyosat mashinasi safarbar qilindiki, hatto “ona tili” tushunchasini ham ishlatmadik. Mantiqdan uzoq ikkinchi ona tili muomalaga kiritildi”¹¹. Taniqli shoir Erkin Vohidovning tahlillariga ko‘ra, “70-yil davomida “Devonu lugotit-turk”da buyukligi va “Muhokamat ul-lug‘atayn”da tavsifi bayon etilgan tilimiz juda ham qashshoqlashdi”¹². Shu asnoda o‘zbek tilining ijtimoiy hayotdagi rolini oshirish uchun, birinchi navbatda, o‘zbek tiliga

¹¹Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 24 б.

¹²Вохидов Э. Сўз латофати. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 188 б.

davlat tili maqomi berilishi talab qilindi. Boshqa guruh esa rus va o'zbek tillariga davlat maqomi berilishi taklifi bilan chiqdi¹³.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi jarayonini ikki bosqichga bo'lish mumkin:

1. Muhokama boshidan "Til haqida"gi Qonun loyihasigacha.

2. "Til haqida"gi Qonun loyihasi atrofidagi munozaralar.

"Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingunga qadar dastlabki loyiha "O'zbekiston SSRning davlat tillari to'g'risidagi qonun loyihasi haqida", ya'ni "Tillar qonuni" deb nomlanar edi. Masalaning muhim jihatlaridan biri shunda ediki, ushbu qonun loyihasining 13-moddasida "Hujjatlar o'zbek va rus tillarida yoziladi", deb belgilab qo'yilgan edi. Agar ushbu modda qabul qilinganida, mamlakatning til siyosatida hech narsa o'zgarmagan bo'lar edi.

Uzoq munozara va tortishuvlardan so'ng birinchi loyiha tahrir qilindi va 31 moddadan iborat "O'zbekiston SSRning "Davlat tili haqida"gi Qonunining oxirgi nusxasi (30 moddadan iborat) O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida qabul qilindi. 1989-yil 21-oktabrda bo'lib o'tgan ushbu sessiyaning qaroriga muvofiq, 4-,7-,8-moddalarni amalga tatbiq etish uchun 8 yil, 5- va 24-moddalar tatbiqiga 3 yil belgilangan bo'lsa, 16-moddani 1991-1992-o'quv yilidan boshlab amalga qo'llash nazarda tutiladi. Shu tariqa O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 75-moddasiga "O'zbekiston SSRning davlat tili o'zbek tilidir"¹⁴ shaklidagi xatboshi kiritildi.

Aytish mumkinki, O'zbekistonda "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi zamonaviy o'zbek adabiy tilining yangi rivojlanish davri boshlanishi uchun ko'p sharoit va imkoniyatlar yaratdi.

Dissertatsiyaning 2.2-paragrafi **"O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni mazmunidagi o'zgarishlar"** deb nomlanadi. O'zbekistonda milliy tilni tiklash bo'yicha qabul qilingan, davlat mustaqilligi uchun dastlabki eshiklarni ochgan birinchi qonun – bu O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni (21.10.1989) hisoblanadi. O'zbekiston SSRning "Davlat tili haqida"gi Qonuni 1991-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun asosida 361-XII-son bilan tahrir qilinib, qonundagi "O'zbekiston SSR" iborasi "O'zbekiston Respublikasi" iborasi bilan almashtirildi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatida ham tillarning holatini tartibga solish, davlat tili va boshqa milliy tillarning vazifalarini yanada aniqroq ifodalash uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. Ushbu Qonun tahriri "Davlat tili haqida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1995-yil 21-oktabrdagi 167-1-sonli) asosida amalga oshirildi. Mazkur qonunga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Ona tilining haq-huquqlarini belgilashda, hayotiy vaziyatda haqiqiy o'zbekona urf-odatlar va milliy qadriyatlarni qaror toptirishda,

¹³ "Адабиёт ва санъат" газетаси, 1989 йил, 17 март. – №12.

¹⁴ "Совет Ўзбекистони" газетаси, 1989 йил 24 октябрь. – № 244.

odamlarning kayfiyatini ko'tarishda muhim rol o'ynaydi"¹⁵, - deya baho bergan edi.

1995-yilda o'zgartirilgan "Davlat tili haqida"gi Qonunga kiritilgan eng muhim o'zgarishlar shundan iborat bo'ldiki, unda davlat tili va uslubiga ko'proq e'tibor qaratildi, chunki "til va uslub jihatidan to'liq bo'lmagan har qanday qonun o'z maqsad va vazifalarini to'liq amalga oshirolmaydi"¹⁶. Yangi tahrirning afzalliklari mazmun va shakl nuqtayi nazaridan sezilarli darajada yangilanganligi, til va uslub nuqtayi nazaridan esa soddalashtirilganligi va ixchamligida namoyon bo'ldi. Tahrirda mustaqil davlatchilikni barpo etish g'oyalari hamda milliy o'zlikni anglashga asosiy e'tibor qaratildi. Ana shu tariqa mustaqillik davrining yangi qonuni yaratilib, o'zbek tili manfaatlari davlat tili sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Ayrim o'rinlarda me'yoriy hujjatlarda, matbuot sahifalarida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni nomi noto'g'ri yozildi. Ya'ni ko'p hollarda "haqida" so'zi o'rnida "to'g'risida" so'zi qo'llanildi. Ushbu so'zlar o'zaro sinonim bo'lsa-da, rasmiy hujjatlarga ko'ra yozilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Avvalgi qonun 30 moddadan iborat bo'lsa, keyingi varianti 24 moddadan tashkil topgan. Qonunning birinchi moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi qayd etilgan¹⁷. Birinchi qonunning 4 ta xatboshisida sovet mafkurasi ifodasini ko'ramiz: "Milliy va rus, rus va milliy tillarda muloqot qilishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratiladi". Ushbu abzas mazmunidan "ikki tillilikni rivojlantirish talabi" anglashiladi. Mazkur holat birinchi qonun xatboshisining mazmuniga zid keladi. Bu esa rus tilining ijtimoiy vazifalarini cheklamaslik va uni o'z maqomida saqlashni anglatadi. Eski qonunning 3-, 7-, 8-, 9- 10-, 12-, 14-, 17-, 21-, 23-, 27-moddalarining mazmuni rus tilining davlat tili – o'zbek tiliga tengligini ko'rsatib turadi. O'zbek tili rasman davlat tili deb e'lon qilingan bo'lsa-da, ushbu moddalarda o'zbek tilining rus tili ta'siridan xoli emasligi namoyon bo'ladi. Shuningdek, mazkur moddalarning mazmuni ham demokratik tamoyillarga mos kelmasligi sababli mustaqillikka erishilgandan so'ng ular o'z mohiyatini yo'qota boshladi.

O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilishi inobatga olinsa (1-, 2-, 3-jadval), faqat rus tiligagina ko'proq imtiyozlar berilishi adolat o'lchovlariga mos kelmaydi. Keyingi tahrirdagi qonunda biror bir tilga millatlararo maqom berilmagan, hatto "xalqaro til" atamasi ham qonunda qo'llanilmaganligi bois, uchinchi moddaning to'rtinchi xatboshisida "Fuqarolar millatlararo muloqot tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar" jumlasini uchraydi.

Yana bir muhim jihatlardan biri shundaki, qonunning 1995-yildagi tahririda oldingi qonunning 16-moddasidagi eski yozuv alifbosini o'rganishga bag'ishlangan o'rinlarni uchratmaymiz. Ammo bu masala "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunning (1993-yil) 2-

¹⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон – келажаги буюк давлат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 6-7 б.

¹⁶ Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунлари тили: НДА. – Тошкент, 1995. – 4 б.

¹⁷Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили тўғрисида"ги Қонуни. <https://lex.uz/docs/121299> сайтдан олинган. Барча иқтибослар шу манбадан.

moddasida alohida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qonunga kiritilgan o'zgarish va tuzatishlar dissertatsiyamizning mazkur bobida batafsil tahlil etilgan.

“Davlat tili haqida”gi Qonunni amalda joriy etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 21-dekabrda 168-1-sonli qarori bilan imzolangan bo‘lib, unga ko‘ra, 9- va 10-moddalardan tashqari qonunning barcha moddalari nashr qilingan sanadan kuchga kirgan. 9- va 10- moddalar esa 2005-yildan boshlab amalga tatbiq etilishi nazarda tutilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentyabrda “O‘zbekiston SSR davlat tili haqida”gi qonunni amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarori imzolandi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganiga 34 yildan oshganligi sababli bugunga qadar jahon hamjamiyati, jumladan, O‘zbekiston siyosiy-ijtimoiy hayotida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Shu nuqtayi nazardan, “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahririni amalga oshirish zarurati tug‘ildi. Mazkur qonunning yangi tahriri 7 bob va 29 moddada ifoda etildi. Bunda amaldagi qonunning 2-,7-,8-,10-,13-,16-,20-,21- va 24-moddalariga o‘zgartirishlar kiritilishi nazarda tutilgan.

Dissertatsiyaning 2.3-paragrafi **“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat tili va boshqa tillarni rivojlantirish borasidagi siyosati”** deb nomlangan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov davlatning muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy masalalari qatorida davlat tili va uni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida milliy va davlat tili masalasiga ma’naviyatni yuksaltiruvchi alohida mezon sifatida baholanadi. “Davlat tili haqida”gi Qonunning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan alohida ta’kidlangan: “...ushbu qonun o‘zining demokratik tomoni bilan boshqa respublikalarda qabul qilingan til qonunlarining aksariyatidan farq qiladi”¹⁸. I.A.Karimovning davlat tili va boshqa tillar: rus, qoraqalpoq, tojik, turkman, qirg‘iz va boshqa tillarni (1-, 2-, 3-jadval) rivojlantirish bo‘yicha siyosiy pozitsiyasi quyidagi so‘zlarida yaqqolroq namoyon bo‘ladi: “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining huquqiy maqomi barqarorlashtirildi. O‘zbek tili boshqa davlat ramzlari – bayroq, gerb, gimn, konstitutsiya qatorida davlatimizning mustaqillik ramziga aylandi”¹⁹.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat tili bilan bog‘liq muammolarni isloh etishga chaqirdi. Ajdodlarimizning asarlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘arb va sharq tillariga tarjima qilish vaqti kelganligini ta’kidlab, fuqarolarning til bilish darajasi nafaqat mamlakatda til siyosatini rivojlantirishga, balki O‘zbekistonning globallashtirish davrida xorijiy davlatlarga qo‘shilishiga imkoniyat yaratishi, ammo chet tillarini o‘rganish davlat tilini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmasligi kerakligini ta’kidlaydi: “Rus tilini yoki chet tilini o‘rganish ona tilini unutish hisobiga sodir bo‘lmasligi kerak”²⁰. Yana

¹⁸ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 83 б.

¹⁹ Ушбу асар. – 88-89 б.

²⁰ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 239 б.

“O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida ta’kidlaydiki, “...o‘z ona tilini, o‘z shajarasini bilmagan odamning kelajagi yo‘q”²¹.

Prezident I.A.Karimovning til siyosati O‘zbekiston Respublikasining ayni paytdagi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yanada rivojlantirildi. Bu borada Prezidentimizning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yanada oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinganligi davlat tili va milliy til siyosatini rivojlantirishda muhim voqea bo‘ldi. Tilshunos olim D.Lutfullayeva ushbu jarayonga quyidagicha baho beradi: “Bu davrda o‘zbek tiliga munosabat keskin o‘zgardi. Ko‘p yillar davomida lingvistik nazariyalar rus grammatik qoidalari asosida qo‘yilgan edi, ulardan voz kechildi va o‘zbek tilini ilmiy o‘rganish tilning ichki qoidalari asosida yo‘lga qo‘yildi. Natijada o‘zbek tiliga xos grammatik qoidalar ishlab chiqildi”²².

Yuqoridagi farmon asosida 21-oktabr – “O‘zbek tili bayrami” etib belgilandi. Prezident tashabbusi bilan davlat tilini rivojlantirish Departamenti hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi. Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. Ushbu universitet huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi hamda uning viloyatlardagi bo‘linmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida zamon talablariga mos ravishda davlat va milliy tilni o‘rganish bilan bir qatorda chet tillarini o‘rganish va bilishning dolzarbligi kun sayin ortib bormoqda (6- jadval).

. Oliy ta’limdan keyingi magistratura va doktorantura bosqichiga kiruvchilar uchun B1, B2, C1, C2 darajadagi xalqaro va milliy til sertifikatlari joriy etildi. Shuningdek, ushbu sertifikatga ega umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun maxsus ustama va rag‘batlantirish tizimi joriy etildi. Ayrim yo‘nalishlarda dars o‘tadigan professor-o‘qituvchilar uchun belgilangan sertifikatga ega bo‘lish talabi qo‘yildi.

Dissertatsiyaning 2.4-paragrafi **“O‘zbek tili imlosi muammolari va uni hal qilish bo‘yicha O‘zbekiston hukumatining yondashuvi”** deb nomlanadi. XX asrda o‘zbek tilining yozuv va imlo qoidalari quyidagi yillarda o‘zgardi:

1. Lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidalari (1930-1940-yillar).
2. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari (1940-yildan 1993-yilgacha).
3. Kirill va lotin yozuvlariga asoslangan imlo qoidalari (1994-yildan 2022-yilgacha).

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat tilini rivojlantirish bilan bir qatorda o‘zbek tilining imlosini tuzatish, qayta ko‘rib chiqish kabi muhim masalalarga alohida e’tibor qaratildi. 1991-1992-yillarda imloni takomillashtirish bo‘yicha bahs-munozaralar yuzaga keldi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuviga o‘tish masalasi kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi²³. Ushbu munozaralarda

²¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 47 б.

²² Лутфуллаева Д.Э. Йиллар сарҳисоби: ўзбек тилшунослигининг мустақиллик даври тараққиёти // “Istiqloq davri o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Тошкент, 2021. – 3 б.

²³ Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Тошкент, 2007. – 123 б.

- 1) eski o‘zbek yozuvi alifbosining tiklanishini qo‘llab-quvvatlovchilar²⁴;
- 2) o‘zbek-kirill alifbosini saqlab qolish tarafdorlari²⁵;
- 3) lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuvini joriy etish tarafdorlari²⁶ o‘z g‘oyalarini ilgari surdilar.

1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq o‘n uchinchi sessiyasida “lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi²⁷, 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra, 1-moddadagi “31 ta harf va tutuq belgisi (apostrof)” iborasi “26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan iborat” so‘zi bilan almashtirildi. Ş/ş va Ў/ў harflari alifboning mustaqil harfi sifatida chiqarib tashlandi. 3-moddaga muvofiq, Ō/ō harfi O‘/o‘ shaklida, Ć/g harfi G‘/g‘ shaklida, Ş/ş harfi Sh/sh shaklida, Ç/ç harfi Ch/ch shaklida, Ń/ñ harfi Ng/ng shaklida yoziladi²⁸. Ya’ni yangi tuzatilgan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida 29 ta harf mavjud bo‘lib, ulardan uchta bir tovushni ifodalovchi ikkita harfdan iborat. Ushbu qonunga kiritilgan o‘zgartirishlarning asosiy sabablaridan biri zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning qulayligi bilan izohlanadi²⁹. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga kiritilgan o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustdagi “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”da o‘z aksini topgan (Ushbu qoidalar 7 bo‘lim va 82 qoidadan iborat).

Umuman olganda, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tish 2000-yilning sentabriga qadar belgilangan edi. Ushbu alifboga o‘zgartirishlar kiritilganligi sababli belgilangan muddatning davomiyligi 2005-yilning birinchi sentabriga qadar uzaytirildi³⁰. 2004-yil 30-aprelda “Ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni imzolandi. Unga ko‘ra, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga to‘liq o‘tish 2005-yil 1-sentabridan 2010-yil 1-sentabriga qoldirildi³¹.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni

²⁴ Ахмедов Б. Зинҳор шошилмайлик // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 7.08.1992.

²⁵ Шопсонов М. Жаҳонга ақл билан чиқилади // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 7.08.1992.

²⁶ Қораев С. Ёзувимиз такомилга муҳтож // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1991 йил 23 август; Ўзбек миллий алифбоси // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1993 йил 13 август; Кўчкортоев И. Ўзбек ёзуви муаммолари // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1991 йил 22 март.

²⁷ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993. – № 9. – 332-модда.

²⁸ Ҳамраев М. Она тили. 1-китоб. – Тошкент: Шарк, 2014. – 38 б.

²⁹ Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Тошкент, 2007. – 153 б.

³⁰ «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тугрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунини амалга киритиш тартиби ҳақидаги Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши қарорига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил. – № 6, 120-модда; Халқ сўзи, 1995 йил 6 июнь; Маърифат, 1995 йил 7 июнь.

³¹ Ўзбекистон Республикасининг Қонуни: Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида: VI Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш тартиби ҳақидаги Қарорининг (2-бандидаги «2005 йил» деган сўзлар «2010 йил» деган сўзлари билан алмаштирилсин; 10-бандидаги «2005 йилнинг» деган сўзлар «2010 йилнинг» деган сўзлар билан алмаштирилсин. 2004 йил 30 апрель.

ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-sonli qaroriga muvofiq 2023-yil 1-yanvardan lotin alifbosiga to'liq o'tish belgilab qo'yildi³².

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tojikiston Respublikasida davlat tili va uning rivojlanishi masalalari”** deb nomlangan bo'lib, unda tojik tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni, Tojikiston Respublikasining “Davlat tili to'g'risida”gi Qonuni, Tojikiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining davlat tili hamda boshqa tillarni rivojlantirishga e'tibori, shuningdek, tojik tilining xat va imlo masalalari tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning 3.1-paragrafi **“Tojik tiliga davlat tili maqomining berilish asoslari”** deb nomlanadi. 80-yillarning oxirlarida tojik ziyolilarini tashvishga solgan dolzarb masalalaridan biri – bu tojik tilining ijtimoiy hayotdagi mavqeyi pasayganligi edi. 1987-yilda ziyolilardan iborat guruhlar shakllanib, tojik tilining nufuzini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlari boshlandi. Bu o'rinda ushbu ishlarning dastlabki bayroqdori sifatida Tojikiston madaniyati jamg'armasi raisi, shoira Gulruxsor Safiyevaning “Millatning o'limi tilning o'limidan, tilning o'limi esa til egalarining benomusligi va begonalashuvidan boshlanadi”³³ degan jumllarini keltirish joiz. Keyinchalik jamiyatda tojik tilining nufuzini oshirish, tojik tiliga davlat tili maqomini berish, respublika hududida ikkitillik va uchtillikni yo'lga qo'yish kabi ko'plab taklif va mulohazalar sezilarli darajada oshdi. Taniqli tilshunos olim T.Vahhobov tojik tilining davlat maqomiga erishish jarayonidagi bahs-munozaralarni uch davrga ajratadi:

- 1) “So'z madaniyati” konferensiyasigacha bo'lgan davr;
- 2) “So'z madaniyati” konferensiyasi payti;
- 3) “So'z madaniyati” konferensiyasidan keyingi davr.

Ushbu davrlarning bo'linishi shartli bo'lsa-da, bizningcha, uni ikki davrga bo'lish maqsadga muvofiqdir: konferensiyadan oldingi va konferensiyadan keyingi davrlar. Fikrimizcha, bir kunni bitta davr deb atash mantiqan to'g'ri bo'lmaydi.

Bahs-munozaralarning birinchi bosqichida tojik tilining jamiyatdagi mavqeyini oshirish nafaqat mutaxassislar tomonidan, balki aholi tomonidan ham turli yo'llar bilan muhokama qilingan va takliflarning aksariyati Tojikistonda rus tili bilan parallel ravishda tojik tilini qo'llashni ta'minlashga qaratilgan edi. Bahs-munozara tarafdorlari Tojikiston hududi aholisi asosan tojik tilida muloqot qilishini va tojik tilida rasmiy hamda me'yoriy hujjatlar yuritilishini talab qildilar. Mamlakat xalqi va ziyolilarining aksariyat qismi milliy muammolar yechimini milliy til nufuzi va qudratini tiklashga bog'liq ekanligida deb bildilar(4-, 5- jadval). Shu bois ular ushbu masalaning 1988-yilning 24- va 25-noyabrida o'tkazilgan “So'z madaniyati” konferensiyasida hal qilinishiga erishdilar. Konferensiya “So'z madaniyati” nomi bilan atalgan bo'lsa-da, aholi asosan tojik tiliga davlat tili maqomining berilishini kutgan edi. Darhaqiqat, ushbu konferensiya tojik adabiy tili tarixida muhim va hal qiluvchi rol o'ynadi. Professor Sh.Rustamov ushbu anjumanning ahamiyatini konferensiya qarori tojik jamiyatida adabiy til rivojlanishining yangi davriga asos solganligi bilan izohlaydi.

³² <https://lex.uz/docs/5281850>

³³ Рустамов Ш. Маданияти сухан. – Душанбе: Маориф, 1990. – 292 с.

Bahs-munozaralarning ikkinchi bosqichi tojik tiliga davlat tili maqomini berishga qaratilgan edi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi takliflar berildi:

- 1) tojik tilini respublika miqyosida davlat tili sifatida tan olish;
- 2) respublika miqyosida tojik va rus tillarini davlat tili sifatida tan olish;
- 3) tojik, rus va o'zbek tillarini davlat tili sifatida tan olish³⁴ (4-, 5- jadval).

Bu hayotiy ehtiyojlarning ijtimoiy ahamiyati va zaruratini quyidagi birgina statistik ma'lumotdan ham anglash mumkin: Tojikiston Oliy Kengashi Prezidiumiga 1989-yil 2-aprel kuniga qadar davlat tili bo'yicha tushgan jami 7400 ta yozma va og'zaki murojaatlarning 99 foizi tojik tiliga davlat tili maqomi berilishi talabidan iborat bo'lgan³⁵.

Uchinchi bobning 2-fasli **“Tojikiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni mazmunidagi o'zgarishlar”** deb nomlangan. Tojikiston Oliy Kengashining 1989-yil 22-iyuldagi o'n birinchi chaqiriq X sessiyasida qayta tahrirlangan “Tojikiston tillari to'g'risida”gi Qonun loyihasi muhokamadan o'tkazilib, qabul qilinadi. Tadqiqotchilarning tahlillariga ko'ra, “ushbu Qonunning qabul qilinishi tojik (fors) tilining huquqiy maqomini belgilab berdi”³⁶.

Tojik tili qonunini bosqichma-bosqich qo'llash uchun Tojikiston Oliy Kengashining qarori bilan 1-,5-, 9-moddasi,10-moddaning ikkinchi qismi, 13-, 21-, 25-26-, 28-, 32-moddalari, 33-moddaning birinchi qismi, 34-, 35- va 37-moddalarining joriy etilishi 1990-yil 1-yanvardan kuchga kirishi belgilab qo'yildi.

Ushbu qonun eski tuzum Konstitutsiyasi doirasida qabul qilinganligi bois, mustaqillik yillarida “Til to'g'risida”gi Qonunning yangi tahririni qabul qilish mamlakatda til siyosatidagi muhim masalalardan biriga aylandi. 2009-yil 5-oktabr kuni hukumat Oliy Majlisida “Tojikiston Respublikasining davlat tili to'g'risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunning yangi tahririda asosiy o'zgarishlar sifatida qonun nomi “Tojikiston Respublikasining “Davlat tili to'g'risida”gi Qonuni” shaklida tasdiqlandi va 3-modda “Tojikiston Respublikasining davlat tili tojik tilidir” shaklida ifoda etildi, “tojik (fors) tili” so'zlaridan faqatgina “tojik tili” so'zi qo'llandi. Ushbu qonun tahriridagi ko'p o'zgarishlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Davlat tilini nazoratga olish va tartibga solish davlatchilikning yaxshi missiyasi isbotidir³⁷.

Dissertatsiyaning 3.3-fasli **“Tojikiston Respublikasi Prezidentining davlat tili va boshqa tillarni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan siyosati”** deb nomlangan. Tojikiston Prezidenti notinch bir davrda, tahlikali fuqarolar urushi paytida ham til siyosatiga oid bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qildi. Jumladan, 1995-yilda Tojikiston hukumati huzurida “Davlat tili to'g'risida”gi Qonunni amalga tatbiq etish bo'yicha komissiya tuzildi va 1997-yilda esa davlat tilini kengaytirish hamda rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Shuningdek, 1998-yilda hukumatning qarori bilan “Tojik tili imlosining yangi qoidalari” tasdiqlandi. 2008-yilni “Tojik tili yili” deb e'lon qilinganligi, maxsus davlat dasturlari asosida keng

³⁴ Тоҷикистони советӣ, аз 25 феввали соли 1989.

³⁵ Рустамов Ш. Каломи Лоик. – Душанбе: Деваштич, 2003. – 157 с.

³⁶ Шокиров Т.С. Забон – рукни давлат. – Хучанд: Дабир, 2018. – 214 с.

³⁷ Шокиров Т.С. Забон – рукни давлат. – Хучанд: Дабир, 2018. – 253 с.

ko‘lamli ishlar amalga oshirilganligi davlat tilining mavqeyini oshirishga, mamlakatning barcha hududlarida uning rivojlanishiga xizmat qildi. Keyinchalik Tojikiston hukumati huzurida Til va terminologiya qo‘mitasi o‘z faoliyatini boshladi. Prezident E.Rahmonning “Millat tili – millat borlig‘i” nomli asari mamlakatda til siyosatining to‘g‘ri olib borilishiga xizmat qilib kelmoqda.

Tojikiston Respublikasi Prezidentining davlat tilini rivojlantirishga oid tashabbuslari asosan quyidagilarda namoyon bo‘ladi: tojik adabiy tilining ilmiy grammatikasini yaratish (2010), barcha soha atamalarini til me‘yorlari asosida qayta ko‘rib chiqish (2005-2012), o‘zlashma so‘z va atamalarni tartibga solish (2012), tojik tilining tarixini o‘rganish (2008-2019), tojik tili shevalarini tadqiq qilish (2008-2019), tojik tilini ilmiy tilga aylantirish (2012), toponimik obyektlarni nomlashda an‘anaviy va milliy me‘yorlarga rioya etish (2012), tojik tilida zamonaviy kompyuter dasturlarini yaratish (2010-2019), Tojikiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatini saylashda, vazirlik, idora va tashkilot rahbarlarini tayinlashda davlat tilini bilish darajasini sinovdan o‘tkazish (2010) va h. Mazkur tashabbuslar Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmon tomonidan olib borilgan til siyosatining metodologik asosini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning 3.4-bo‘limi **“Tojik tili imlosi muammolari va uni hal qilish bo‘yicha Tojikiston hukumatining yondashuvi”** deb nomlanadi. 1972-yilda qabul qilinib, 80-yillarning oxirigacha o‘zgarishsiz foydalanib kelingan tojik adabiy tili imlo qoidalari 90-yillarning boshida buzila boshlandi. Bunday lingvistik tartibsizlikni birgina *илм-ълм, олим-ълим, шиор-шиъор, соат-соъат, шоур-шоъур, доира-дойира, зойб-зойиб, дарё-дарёо* kabi so‘zlarning yozilishida ko‘rishimiz mumkin. Bu holat ta‘lim va tarbiya jarayoniga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi³⁸. 1998-yil oxirida kuchga kirib, 1999-yilda nashr etilgan “Tojik adabiy tilining imlo qoidalari” (to‘rtinchi tahrir) bu kabi ko‘plab munozarali masalalarga chek qo‘ydi. 1972-yilgi imlo qoidalarida harflar soni 39 ta bo‘lsa, ushbu imlo qoidalarida harflar soni 35 tani tashkil etdi, rus tiliga xos [ш], [ц], [ы], [ь] kabi harflar alifbogan chiqarildi. Ushbu imlo qoidalarida 5 ta asosiy yozuv tamoyillariga rioya etilgan bo‘lsa-da, ayrim kamchiliklardan xoli bo‘lmaganligi sababli 2011- va 2021-yillarda “Tojik tilining imlo qoidalari” yangi tahrirda qabul qilindi. Muammolar va bahs-munozaralar quyidagilarda namoyon bo‘ldi.

У va Ў (o‘) unllarining yozilishi. “Tojik tilining imlo qoidalari” Tojikiston hukumatining 2011-yil 4-oktabrdagi 458-sonli qarori bilan tasdiqlangan edi, ammo “Jumhuriyat” gazetasining 2012-yil 8-sentabrdagi sonida 66 ta so‘zlar ro‘yxati taqdim etildiki, unga muvofiq 66 ta “ў” harfi bilan yoziladigan so‘zlar o‘rniga oddiy “у” harfini yozish qabul qilingan edi. Tojikiston Respublikasi ta‘lim vazirligi barcha umumta‘lim maktablarining o‘quvchi va o‘qituvchilaridan ushbu me‘yorga rioya etilishini talab qildi³⁹. Shu o‘rinda imlo qoidalariga rioya qilmaslik va hukumat qoidalariga bo‘ysunmaslik ancha munozarali masalaga aylandi. Tojik tili imlosida unli tovushlarni yozish me‘yorlari haqida professor T.S.Shokirovning “Har ovozning sadosi” va professor A.Hasanovning “Sargardon tojik unlisining

³⁸ Чумъаи Чамол, Навгонихои тахрири нав дар имлои забони тоҷикӣ // Овози тоҷик, аз 19 августи соли 2000.

³⁹ Ҳочиев С. Ҳарфи мискинро саргардон насозем // Ҳақиқати Суғд, 31.01.2013. – №14.

taqdiri”⁴⁰ maqolalari asosida aytish mumkinki, ular orqali bu bahslarning aksariyatiga chek qo‘yishga muvaffaq bo‘lindi.

Arabcha **ع** harfining imlosi tojik tili imlo qoidalarining muhim va bahsli masalalaridan biri edi. Hozirgi alifboda ushbu ovoz “Ъ” belgi bilan ko‘rsatiladi. Bu harf arab tilida halqli tovush va hamza belgisini bildirish uchun ishlatiladi. Ya’ni arab alifbosidagi ikkita belgi tojik tilida bitta belgi (Ъ) bilan ifodalangan, uni noto‘g‘ri ishlatish so‘z ma’nosini almashtirishga olib keladi: *бад-баъд, шёр-шер, само-само* va hokazo. Agar **ع** harfi va hamza belgisi tojik tili alifbosida alohida-alohida belgilansa, bu muammoni hal qilish oson bo‘lar edi. Я (ya), ё (yo), ю (yu), е (ye) harflarini ba’zi ziyolilar va tilshunoslar bizning tilimizda ortiqcha deb hisoblaydilar. Ikki tovushdan iborat harflarining ishtirokisiz Ёдгор (Йодгор), Яҳё (Йахё), *дунё (дунёо), дарё-(дарёо), бӯрё (бӯрёо)* va boshqa shu kabi ovozni o‘z ichiga olgan so‘zlarni ifodalash mumkin edi.

Avtomatik tarjimalarning noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligi sabablaridan biri bu tojik tili imlo qoidalarining noaniqligi va ularning axborot texnologiyalari talablariga javob bermasligidir. “Tojik tilining imlo qoidalari”ning so‘nggi nashri hukumatning 2021-yil 30-iyundagi “Tojik tilining imlo qoidalari va tojik tilining tinish belgilari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlandi. Shu xususda muallifning “Tojik adabiy tilining imlo qoidalari va tinish belgilari” nomli uslubiy qo‘llanmasida to‘liqroq ma’lumot berilgan.

XULOSA

1. MDH mamlakatlarida davlat tili davlatchilikning asosiy ustunlaridan biriga aylanib, uning rivojlanishi mamlakat Konstitutsiyasi va “Davlat tili haqida”gi Qonun bilan ta’minlandi. MDH mamlakatlarida til siyosatini takomillashtirishni ta’minlash maxsus konsepsiyalarni hayotga tatbiq etishda kuzatildi. Mustaqillik yillarida aholining davlat va milliy tillarga e’tibori sezilarli darajada oshdi, buni biz MDH mamlakatlarida qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat va nodavlat muassasalari faoliyati misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

2. Bugungi kunda O‘zbekistonda o‘zbek tili davlat tili sifatida ustuvor maqomga egaligi, shuningdek, mamlakatdagi barcha tillarning rivojlanishiga yanada keng sharoit yaratilayotganligi mamlakat Konstitutsiyasida aks etgani bilan birga, amalda ham jamiyatning barcha jabhalarida o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbek va rus tillari mintaqada xalqaro til vazifasini bajararib kelmoqda.

3. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda milliy tillarning jamiyatdagi o‘rni va faolligi sezilarli darajada oshdi, chunki mamlakatda barcha milliy tillarga nisbatan oqilona siyosat olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Davlat tili haqida”gi Qonuni asosida barcha milliy tillardan foydalanish va ularni rivojlantirish borasida bir xil shart-sharoitlar yaratilganligini ta’kidlash zarur (1-, 2-, 3-jadval).

⁴⁰ Ҳасанов А. Сарнавишти як садоноки саргардони тоҷикӣ // Ҳақиқати Суғд, 3.01.2013. – №2. Ҳамчунин дар шабакаи фејсбукии “Вожаҷӯ”. <https://m.facebook.com/groups/vazhaju/permalink>

4. O‘zbekiston Respublikasining birinchi hamda hozirgi Prezidenti til masalasi va uning muammolarini hal etishni mustaqil mamlakat davlatchiligining eng dolzarb masalalaridan biri deb hisobladilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning barcha siyosiy nutqlarida hamda saylovoldi dasturida ham davlat tilini rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonunining navbatdagi tahriri va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi mavjud muammolarni hal etish o‘ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

6. Tojikiston Respublikasida tojik tili davlat tili, tojik va rus tillari esa millatlararo tillar sifatida ustuvor o‘rin tutadi.

7. Tojikistonda unchalik faol bo‘lmagan milliy tillarning jamiyatdagi nufuzi pastligi sababli til siyosatini olib borishda Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni asosida hukumat tomonidan barcha milliy tillarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelinmoqda (7- jadval).

8. Millatning butun borlig‘i hisonlangan milliy tilni rivojlantirishga bag‘ishlab fundamental risola yozib, ko‘plab munozarali muammolarni amaliy hal etishga muhim hissasini qo‘shgan Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmonning tashabbuslari tilni davlat himoyasida va davlatni esa til himoyasida qaror topishiga qaratilgan.

9. Tojik tilining yangi imlo qoyidalariga to‘liq rioya etilishini ta‘minlash maqsadida Tojikiston Respublikasining Til va terminologiya qo‘mitasi nazoratini kuchaytirish zarurati sezilmoqda.

10. O‘zbekiston va Tojikiston hukumatlarining til jamiyati doirasida davlat tili va milliy tillar holatini o‘rganish hamda tadqiq etish nafaqat davlat tilining rivojlanishiga, balki milliy tillarning tadrijiy taraqqiyotiga ham ko‘mak beradi. Davlat tili siyosati va davlatning til siyosatini chuqurroq hamda aniqroq anglash uchun turli lingvistik muhitdagi va hududlardagi tillar holati yuzasidan zamonaviy usullarda sotsiolingvistik tadqiqotlarni olib borish milliy tillarni rivojlantirishga, millatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

11. Yangi O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlashning muhim va samarali yo‘li – bu ushbu mamlakatlarda olib borilayotgan oqilona til siyosati va uning barqarorligidadir. So‘nggi yillarda davlat rahbarlarining tashabbusi bilan O‘zbekiston va Tojikiston davlatlari o‘rtasida olib borilayotgan do‘stona munosabatlar anchagina rivojlandi, buning natijasida Yangi O‘zbekiston sharoitida tojik tilining ham rivojlanishi kuzatildi, Tojikistonda esa o‘zbek tilining rivojlanishi avvalgi yillarga qaraganda ancha o‘sdi. Ana shunday oqilona til siyosatini har ikkala davlatning maxsus qabul qilingan taraqqiyot strategiyasida, adabiy nashrlarda, milliy-madaniy markazlar faoliyatida, OAV dasturlarida, umumiy va oliy ta‘lim muassasalari faoliyati misolida ko‘rish mumkin.

12. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalarida tillarning o‘zaro ta‘siri, ularning ma‘lum bir hududdagi mavqeyi, ijtimoiy-siyosiy sharoitlari, davlat tili va milliy tillarga munosabati masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Tadqiqot davomida

O‘zbekiston Respublikasida ham, Tojikiston Respublikasida ham me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni bilmaslik yoki o‘zlarining milliy ustunligini namoyish etish kabi ziddiyatli holatlar yildan-yilga kamayib borayotgani aniqlandi. Bu esa mamlakatlar o‘rtasidagi samarali hamkorlikning yuksalishidan dalolat beradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL №DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 ON AWARD OF
SCIENTIFIC DEGREES FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

DJAMOLOV JUMABOY KHISENOVICH

ISSUES OF THE STATE LANGUAGE IN THE CIS COUNTRIES

10.00.11-Language theory. Applied and computer linguistics

**Dissertation abstract for doctor of philosophy (Phd)
in philological sciences**

Fergana-2023

The theme of the (PhD) dissertation was registered by the Supreme Attestation Commission under B2022.2.PhD/Fil12504.

The dissertation was completed at the Department of Linguistics of Fergana State University.

The abstract of the dissertation was posted in three (Uzbek, English, Russian (resume)) languages on the website at www.fdu.uz and on the website of "ZiyoNet" Information and Educational Portal at www.ziynet.uz.

Scientific supervisor:

Shokirov Tughral Sirojovich
Doctor of philological Sciences, professor

Official opponents:

Uluqov Nosirjon Mukhammadalievich
Doctor of philological Sciences, professor

Abdujamol Hasanzoda Ashraf
Doctor of philological Sciences, professor

Leading organization:

Termez State University

The defense of the dissertation will be held on "19" 10 2023, at 10:00 at the meeting of the Scientific Council DSc.03.30.2019.Phil.05.02 at Fergana State University (Address: 105, B.Marginoniy street, Fergana, 100151. Tel.: (99873) 244-57-82); e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation is available in the Information Resource center of Fergana State University (registered under №307. Address: 19, Murabbiylar street, Fergana, 100151. Tel: (+99873) 244-71-28).

The Abstract of the dissertation is distributed on "6" 10 2023.

(Registry report № "29" dated "6" 10 2023).



Sh.M. Iskandarova
Chairman of the Scientific Council on Award of Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, professor

M.T.Zokirov
Scientific Secretary of the Scientific Council on Award of Scientific Degrees, PhD, professor

A.Mamajonov
Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on Award of Scientific Degrees, Doctor of Philological sciences, professor

INTRODUCTION (abstract of the doctoral (PhD) dissertation)

Actuality and significance of the research theme. More attention is directed to the problems of language and society in world linguistics, as well as to international, state, official, national languages, the interaction of different languages in certain regions, detailed study of language status, in particular, the protection of endangered languages, within the management of language policy in different countries. Such issues require sociolinguistic research. From this point of view, the socio-political in multinational countries, determining the position of state language, language policy, languages in the CIS countries in ensuring friendly relations of different nationalities is in great practical importance.

Sociolinguistics, ethnolinguistics, psycholinguistics, neuro-linguistics, paralinguistics and similar branches are rapidly developing in world linguistics, revealing the attitude of a person and society towards language. In modern conditions of globalization, one of the most important tasks is to study the social functions of language on the basis of international and regulatory legal acts of countries, to determine the role and social functions of the state language and national languages in the development of independent national languages, the revival of values aimed at the national consciousness of various peoples, research in this area is scientifically and theoretically important.

Nowadays there are a number of problems and obstacles which are waiting for its solutions in the development of the state language in the countries of Uzbekistan and Tajikistan, which are still waiting for their solution while more attention to the role and status of the state language in the applying of the law “On the State language” and the organization of national statehood have been paid in Uzbek and Tajik linguistics. From this point of view, “the issue of “The state language” should become one of the main directions of our national idea. It is necessary to increase the effectiveness of scientific research related to the peculiarities of the Uzbek language, the language styles, historical progress and its independence”⁴¹. The solution of issues related to the development of the state language and its prospects in the implementation of the state language policy is considered as one of the main tasks of scientists in the society.

This study was published in the Resolution of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 1989 No. 3563-XI “On the procedure for the application of the Law of the Republic of Uzbekistan “On the State language”, Resolution of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan dated December 21, 1995 No. 167-1 “On the procedure for applying the new version of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State language", Law of the Republic of Uzbekistan No. 618 dated April 10, 2020 “On the establishment of the Day of celebration of the Uzbek language”, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 “On measures to dramatically increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language,

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://uza.uz/>

measures to further develop the Uzbek language in our country and improve language policy” dated October 21, 2020 No. FP-6084, the state program of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on the implementation of the law “On the State language of the Uzbek SSR” dated September 10, 1996 No. 311, “On Amendments and Additions to the Law “On the State Language” dated May 18, 2018 No. 376, “On measures to improve the system of translation and publication of the best samples of world literature into Uzbek and masterpieces of Uzbek literature into foreign languages“ dated December 12, 2019 No. 984, “On approval of the Regulations on the Department of Development of the State Language" dated 2020 No. 376, “On measures to improve the system” on the organization of the activities of the Tashkent State Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature” No. 117 dated March 3, 2014, “On measures to further improve the effectiveness of fundamental and applied research in the Uzbek language and literature” dated March 11, 2020 No. 139 and other regulatory legal acts.

Relevance of the research on the priority directions of the development of science and technology of the republic. This study was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the Republic: “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the informed society and democratic state”.

Degree of study of the topic. Since the 70s and 80s of the last century, the number of prestigious universities in the world, including such higher educational institutions as Cambridge, Oxford, Edinburgh, Harvard, New York, Chicago, Toronto, Moscow and St. Petersburg conducted a number of studies in the field of sociolinguistics. Among them the researchers V.I.Belikov, L.P.Krisin, Bell Roger, V.D.Bondaletov, N.B.Vakhtin, E.V.Golovko, T.B.Kryuchkova, B.P.Narumov, H.Z.Bagirokov, Z.U.Blyagoz and K.Dyakova include their scientific studies of national, state and official languages, changes in the language and its social functions in modern society, problems of normative language, the relationship between language and politics, the state of the language in Spain, the state of bilingualism after reconstruction in the Republic of Adygea, the identity of the Russian and French languages, the main attention is paid to such issues as theoretical and practical aspects of issues bilingualism⁴².

In the field of Turkology the issues of language and social relations, bilingualism, interlanguage communication and language are specially studied by researchers such as A.M.Abasilov, S.A.Asanbayeva, B.Khasanuli (Kazakhstan), Z.Derbisheva (Kyrgyzstan), J. Tukhvatullina (Tatarstan)⁴³.

⁴²1) Беликов В.И., Крысин Л.П. Социоллингвистика. Учебник для вузов. –М.: Рос. гос. гуманит. ун-т, 2001,- 315 с.; 2) Белл Роджер Т. Социоллингвистика. Цели, методы и проблемы. –М.: Международные отношения, 1980. –320 с.; 3) Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. –М. Просвещение, 1987. 160 с.; 4) Вахтин Н.Б., Головкин Е.В. Социоллингвистика и социология языка.–Санкт-Петербург. Гуманитарная академия. 2004. 336 с.; 5) Крысин Л.П. Язык в современном обществе –М. Просвещение. 1977,-192 с.; 6) Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социоллингвистика. Монография. –М.:Наука. 1991,-157с.

⁴³1) Абашилов А.М., Асанбаева С.А. Социоллингвистические исследования в Казахстане: новые возможности и проблемы: –Международный журнал экспериментального образования. 2015. №3. 192-196 с. 3) Хасанулы

Although the theoretical issues of language and society in Uzbek linguistics were reflected at the beginning of the XX century in the works of Mahmudkhuja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, Chulpan, Abdullah Kahhar, in the 1980s-90s this issue acquired a serious wide scope. During this period, scientists, intellectuals of the Uzbek people Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Utkir Khoshimov, Akmal Akromov, Kamal Matyakubov, Mirza Kenjaboyev, Oydin Hojiyeva, Tohir Malik, Temur Pulatov, Khurshid Davron and others in their articles drew attention to the role and position of state and national languages in the country. Linguists in the years of independence H.Nematov, N.Makhmudov, A.Nurmonov, A.Mamajonov, Sh.Iskandarova, S.Muminov, H.Dadaboyev, N.Saidrahimova, M.Zokirov, Sh.Usmanova, N.Bekmukhammedova, B.Kushakova, etc., having analyzed the relationship between language and society, created special manuals⁴⁴.

The linguists such as A.N.Baskakov, N.Urunboyev, D.Nasirov, E.Berdimurodov, K.Kushchanov, R.Yesemuratova, A.Umarov, A.Jaksibayev, G.A. Kurbaniozov studied the Karakalpak language, widely spoken in the Republic of Karakalpakstan, in particular, to the influence of the Russian language on the Karakalpak language, the Uzbek language on the Karakalpak language, bilingualism, multilingualism, research⁴⁵.

A number of works have also been carried out in the field of Tajik social linguistics. The tajik intelligence of linguists S.Ayniy, S.Alizoda, T.Zehniy, M.Shakuriy, A.Maniyazov, R.Gafforov, Y.Akbarzoda, T.Vakhhabov, T.Shokirov, Sh.Rustamov, L.Sherali, G.Safiyeva, M.Mirrahimov, A.Sayfulloyev, T.Abdujabbar, D.Saymiddinov, M.Kasimova, A.Istad, R.Hadizoda, S.Nazarzoda, H.Majidov, A.Khasanov's articles in the press and at various scientific conferences highlight topical issues of language and society, the attitude of the local population to the Russian language, bilingualism, the social functions of the Tajik language in Tajikistan, state policy on language, criteria of the Tajik literary language, issues of the quality of media materials, writing and spelling of the Tajik language, the Law of the Republic of Tajikistan were touched upon "On the State language" and its

Б.Тилдик катынас негиздери.: –Алматы. 2006. -356. 4) Дербишева З. Языковая политика и языковая ситуация в Кыргызстан.e/Russian Language journal. 2009,-49-58 с. 5.Вейсялли Ф. Языковая ситуация в современном Азербайджане: <https://doi.org/10/18485>.

⁴⁴1.Махмудхўжа Бехбудий. Икки эмас, тўрт тил керак./“Ойина” журналы.1913.№1. 20 август. 2. Абдулла Қаҳҳор. Ғой бой ва чиройли./”Адабиёт ва санъат”. 1989, №13.24 март. 3.Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.ф.д.дисс:Тошкент. 2000.-235 б. 4.Искандарова Ш. Ўзбек нутқ фаолиятининг мулоқот шакллари. Филол.ф.н дисс. автореферати: Самарқанд. 1993.-25 б. 5.Саидрахимова Н. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол. ф.н. дисс. автореферати: –Тошкент. 2004. 25 б. 6.Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек тожик билингвизмида намоён бўлиши. Филол.ф.н. дисс: –Тошкент. 2007. 148 б. 7.Жўраев Ш. Билингвизм шароитида тожик ва ўзбек тилларининг лексик сатҳидаги ўзаро алоқалари. Филол.фанлари бўйича ф.д. (PhD) дисс. автореферати: –Самарқанд. 2018.,-21 б.

⁴⁵1.Баскаков А.Н. Социолингвистический анализ языковой ситуации в регионе Средней Азии и Казахстана: –Нукус. Билим. 1992. 15 с. 2.Урунбаев Ж. Народное образование в Каракалпакстане за 10 лет: Нукус. Каракалпакстан. 1973.,-170 с. 3. Насыров Д.С. Становление каракалпакского общенародного разговорного языка и его диалектная система: –Нукус-Казан..1976. –399 с.

practical application, the attention of the Government and the President of Tajikistan to the development of the state language, the development of languages of the small population, in particular, the Badakhshan languages⁴⁶.

